

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/31.12.2020.I.09.04 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH  
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**RUZIYEV XAMROKUL JURAYEVICH**

**RESPUBLIKA AGROSANOAT MAJMUALARIDA XIZMAT  
KO‘RSATISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.05-“Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Ruziyev Xamrokul Jurayevich**

Respublika agrosanoat majmualarida xizmat ko‘rsatishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....3

**Рузиев Хамрокул Жураевич**

Совершенствование организационно-экономического механизма оказания услуг в агропромышленных комплексах Республики.....25

**Ruziev Xamrokul Jurayevich**

Improvement of the organizational and economic mechanism of service provision in Republican agro-industrial complexes.....49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....57

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.15/31.12.2020.I.09.04 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH  
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**RUZIYEV XAMROKUL JURAYEVICH**

**RESPUBLIKA AGROSANOAT MAJMUALARIDA XIZMAT  
KO‘RSATISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.05-“Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Iqt1660 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.tstu.uz](http://www.tstu.uz)) va «Ziyonet» ta'lim axborot tarmog'ida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar**

**Turayev Baxodir Xatamovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy  
opponentlar:**

**Shodiyeva Gulnora Mardiyevna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Muhitdinova Kamola Alisherovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.15/31.12.2020.I.09.04 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent shahri, Odilxujayev ko'chasi, 1-uy. Tel: (998 71) 299-00-01; faks: (+99871) 299-00-01; e-mail: [tstu\\_rektorat@tstu.uz](mailto:tstu_rektorat@tstu.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent shahri, Odilxujayev ko'chasi, 1-uy. Tel/faks: (998 71) 293-57-54, e-mail: [tstu\\_rektorat@tstu.uz](mailto:tstu_rektorat@tstu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2024 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**O.K.Abduraxmanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, i.f.d., professor

**M.I.Akbarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, i.f.n., dotsent

**M.T.Alimova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda globalashuv va keskin raqobat jarayonlari kuchayayotgan sharoitda qishloq xo‘jaligi sanoat ishlab chiqarishining xomashyo manbalariga hamda aholining tabiiy va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyojlari tobora ortib borayotgan iqtisodiyotning asosiy tarmog‘i sifatida namoyon bo‘lmoqda. Darhaqiqat, “2021-2022 yillarda dunyo YAIMda qishloq xo‘jaligining ulushi 4.3% ni tashkil etib, keyingi 17 yil ichida birinchi marta 20% ga yetdi”<sup>1</sup>. Bu esa jahon mamlakatlari iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini samarali tashkil etish, uning faoliyatini moliyalashtirish va zamonaviy texnika-texnologiyalar bilan ta‘minlash jarayonlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Jahonda qishloq xo‘jaligi sohasini yanada rivojlantirish, uning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlaridagi ulushini oshirish, ayniqsa joylarda aholini yangi ish o‘rinlari bilan ta‘minlash, “aholi turmush darajasini oshirish, aholiga xavfsiz tabiiy oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish maqsadida qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirishning yangi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy izlanish va tadqiqotlar olib borilmoqda”<sup>2</sup>. Shu jihatdan davlat-xususiy sherikligi agrosanoat majmualarida xizmat ko‘rsatish mexanizmi asosida qishloq xo‘jaligi sohasi samaradorligini oshirish, agrar sohada agrosanoat majmualarida xizmat ko‘rsatish mexanizmi yuqori samara beradigan yo‘llarini asoslash, mahalliy, hududiy va makroiqtisodiy darajada agrosanoat majmualarida xizmat ko‘rsatish mexanizmining qishloq xo‘jaligi sohasiga beradigan multiplikativ ta‘sirini baholash bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2019 yil 23 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-son farmonlari, 2018 yil 29 maydagi “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga mexanizatsiya va servis xizmatlarini ko‘rsatish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3751-son qarori va boshqa soha faoliyatini rivojlantirishga doir belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Hozirgi paytda xorijda agrosanoat majmuasida xizmatlar ko‘rsatishni ham nazariy, ham amaliy tomondan

<sup>1</sup> <https://www.downtoearth.org.in/news/agriculture/agri-share-in-gdp-hit-20-after-17-years-economic-survey-75271>

<sup>2</sup> Кочеткова С. А. Реализация проектов ГЧП в аграрной сфере: европейский опыт [Журнал]// Контентус - 2017 г.- 54: Т. 1.- стр. 9-20.- [https://www.elibrary.ru/download/elibrary\\_28965307\\_54391305.pdf](https://www.elibrary.ru/download/elibrary_28965307_54391305.pdf).

tavsiflovchi ishlar yetarlicha mavjud. Agrosanoat majmuasida xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirish muammolari bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilarning ishlari qatorida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: V.G.Varnavskiy, A.V.Klimenko, V.A.Korolev, G.A.Borshevskiy, S.A.Kochetkova, Y.V.Milshina, G.L.Litovka va h.k. Qishloq xo'jaligida davlat-xususiy sheriklik masalalariga Z.A.Ivanova, D.Raxmanova<sup>3</sup> kabi olimlarning ishlari bag'ishlangan.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti sohasidagi quyidagi O'zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlari xizmat qiladi: G.M.Kasimov, M.N.Ravshanov, S.N.Usmonov, R.X.Xusanov, K.A.Chariyev, O'P.Umurzaqov va boshqalar lizing munosabatlarini o'rganishga G'D.Dusmuratov, I.E.Rafiqov, I.O.Sattarov, S.S.Ismailova, D.G'G'ozibekov, O.SH.Sabirov, A.G.Mo'minov, O.M.Quljonov kabi olimlarning ilmiy ishlari bag'ishlangan<sup>4</sup>.

Ammo, O'zbekiston qishloq xo'jaligida, xususan agrosanoat majmuasida xizmatlar ko'rsatish munosabatlari sohasidagi masalalar kam o'rganilgan. Shu boisdan, agrosanoat majmuasida xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirish muammolarini tadqiq etishga metodik va tashkiliy-metodologik yondoshuvlarni rivojlantirish zarurati tug'iladi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №QXA-2-030-2022 "Agrosanoat majmualarida xizmat ko'rsatishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy ilmiy tadqiqot loyiha doirasida bajarilgan.

---

<sup>3</sup> В.Г.Варнавский.Государственно-частное партнерство: некоторые вопросы методологии/Вестник Института экономики РАН.2009.А.В.Клименко.Взаимосвязь правового и политического сознания в осуществлении идеологической функции государства. Автореферат.2005.г. В.А.Королев. Фактор АСЕАН в формировании внешнеполитической стратегии Малайзии в отношении США и Китая. Автореферат.2007.Г.А.Боршевский. Управление государственными программами и проектами 2-е изд., пер. и доп. Учебник для вузов. 2023. 300 стр. С.А.Кочеткова. Государственно-частное партнерство в инновационной сфере.2016 г. Й.В.Милшина, Механизмы управления проектами государственно-частного партнерства в условиях финансово-экономической нестабильности. Автореферат.2013г. Г.Л.Литовка. Логика формирования механизма оценки эффективности проектов государственно-частного партнерства на уровне региона.Проблема эффективности государственно-частного партнерства: сборник докладов Международной конференции по проблемам управления, М.: ИПУ РАН, 2009. З.А.Иванова. Государственно-частное партнерство в сельском хозяйстве: формы, модели, механизм.Автореферат.2014.г.Д.Рахманова:Государственно-частное партнерство в аграрном секторе. Автореферат. 2011.г.

<sup>4</sup>Kasimov, G. M.; Problemi sovrashenstvovaniya organizatsii raboti avtomobilnogo transporta v agropromishlennom komplekse (na primere transportnogo obslujivaniya plodoovoshnogo xozyaystva Uzbekskoy SSR). Ravshanov.M.N. Yo'l-transport majmuasi resurs salohiyati boshqaruvi samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish. P.X.Xusanov. Agrarная реформа: теория, практика, проблемы. Ташкент —Узбекистан. 1994 г. 71 str; Чариев. К.А. Проблемы аграрного ресурсного потенциала у условиях к ринку. – Т.: Фан, 1992. Умурзаков У.П. Повишения эффективности использования ресурсного потенциала аграрного сектора экономики Узбекистана. Т.: Фан. 2005. – 212 с. S.N.Usmonov va boshq. Tadbirkorlik asoslari. "Farg'ona" nashriyoti, 2000 yil. – 304b.;Dusmuratov G'D., Kadirxodjayeva F.B. Qishloq xo'jaligida oqova suvlardan foydalanishda davlat-xususiy sherikchiligi. // Qishloq va suv xo'jaligida davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va amalga oshirish mexanizmlari: respublika ilmiy-amaliy anjumani. – TIQXMMI, 1-2 may 2019 y. – 49-54 b. Rafiqov I.E. Qishloq xo'jaligida servis xizmati muqobil mashina-traktor parklarini rivojlantirish masalalari. -T.: Yangi asr avlodi, 2001. – 124 b. Rafiqov I.E. Turli mulk shakllarida faoliyat ko'rsatuvchi qishloq xo'jalik korxonalariga texnik servis xizmatini tashkil etish masalalari. Iqt. fan. nom. ilm. dar. ... diss. avtoref.T.: 1998. 24 b. Sattarov I.O. Agrosanoat majmuida lizing tizimini tashkil etish va uni takomillashtirish. Diss. i.f.n. T.: 2001, 155-b; G'ozibekov D.G'., Sabirov O.SH., Mo'minov A.G., Quljanov O.M. Lizing munosabatlari nazariyasi va amaliyoti. T.: Fan va texnologiya, 2004, 308-b. 71.Ismaylova S.S. "O'zbekiston agrosanoat majmuasida lizing faoliyatini rivojlantirishning iqtisodiy asoslari".Monografiya. T: "IQTISOD - MOLIYA". -2011. -123 b;

**Tadqiqotning maqsadi** respublikada agrosanoat majmualarida xizmat ko'rsatishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

agrosanoat majmualarida xizmat ko'rsatishning hozirgi holatini tadqiq etish va uni rivojlantirish imkoniyatlarini yuzaga chiqarish;

agrар sohada takror ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq qilish;

agrар iqtisodiyotni samarali faoliyat ko'rsatishiga ta'sir etuvchi mexanizmini shakllantirish;

agrosanoat majmualarida xizmat ko'rsatishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini qo'llashning mahalliy va jahon tajribasini tadqiq etish;

qishloq xo'jaligida agrosanoat majmualarida xizmat ko'rsatishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

agrosanoat majmualarida xizmat ko'rsatishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida agrosanoat majmualarida xizmat ko'rsatish munosabatlari tizimiga jalb etilgan subyektlar olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib agrosanoat majmualarida xizmat ko'rsatishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida abstrakt-mantiqiy, iqtisodiy-statistik, monografik, ekspert baholash, dasturiy-maqсадli va hisob-konstruktiv kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "Agrosanoat majmualarida xizmat ko'rsatish" tushunchasining iqtisodiy mazmuni qishloq xo'jaligi va agrosanoat majmualarining samaradorligini oshirish maqsadida texnika va uskunalarni ta'mirlash, suv ta'minoti, o'g'it va kimyoviy moddalar yetkazib berish, transport xizmatlari, agrotexnika maslahatlari berish va boshqa qo'llab-quvvatlovchi xizmatlar tarkibi soha ish faoliyatini samarali tarzda tashkil qilish va yuqori hosildorlikka erishishni ta'minlash nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

agrosanoat majmualariga xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining faoliyat barqarorligiga erishishda xizmat ko'rsatish bilan bog'liq daromadlarning minimal hajmini ta'minlash orqali ular moliyaviy holati samaradorligini oshirish ( $k_{ichu} \approx 0,15 - 0,2$ )ning meyoriy chegaralari asoslangan;

qishloq xo'jaligida tadbirkorlarga agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishda davlat-xususiy sherikligi asosida yuqori qiymatli va innovatsion tavsifdagi texnik vositalar ro'yxatiga kiritilgan ishlab chiqarish vositalarini to'g'ridan-to'g'ri yetkazib berishga oid agroxizmatlar ko'rsatuvchi subyektlar faoliyatini yo'lga qo'yish taklifi asoslangan;

O'zbekiston agrosanoat majmualarida xizmat ko'rsatish darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi tashkiliy-iqtisodiy omillarning o'zaro bog'liqligini ifodalovchi ekonometrik model asosida 2027 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

agrosanoat majmualarida xizmat ko'rsatish munosabatlarini rivojlantirish hisobiga xususiy sektor investitsiyalarini jalb etishdagi qo'shimcha imkoniyatlar doirasida qishloq xo'jaligi infratuzilmasini shakllantirish bilan bog'liq amaliy tadbirlar tavsiya etilgan;

qishloq xo'jaligida agrosanoat majmualarida xizmat ko'rsatish munosabatlarini rivojlantirishda zamonaviy resurs tejamkor texnologiyalarni joriy qilishni rag'batlantirish bo'yicha davlat dasturlari hamda tegishli huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish taklifi asoslangan;

agrosanoat majmuasini rivojlantirish va qishloq xo'jaligiga innovatsiyalarni tatbiq qilish imkoniyatlarini oshirish uchun agrosanoat texnik vositalarini to'g'ridan - to'g'ri mamlakat hududiga olib kirilgandagi iqtisodiy samaradorligi hisoblandi;

hududlarda agrosanoat majmualarida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish bo'yicha tashkil etilayotgan tuzilmalarda davlat tashabbuslarini baholash masalasini hal etish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya doirasida bajarilgan ilmiy tadqiqotlar natijalarining ishonchliligi tadqiqot axborot bazasining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari ishlanmalari, qishloq xo'jaligini boshqarishdagi turli darajalardagi buxgalterlik hisobotlari, qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha dasturlar bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar, internet resurslari va muallifning shaxsiy kuzatishlaridan tashkil topganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati agrosanoat majmualarida xizmat ko'rsatishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning yuzaga chiqarilgan imkoniyatlari va qishloq xo'jaligida agrosanoat majmualarida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishga imkon beradigan takliflar, agrosanoat majmualarida xizmat ko'rsatish munosabatlarining mohiyati va agrosanoat majmualarida xizmat ko'rsatishni takomillashtirish mexanizmidan foydalanish imkoniyatlari xususida ilmiy yondashuvlarni kengaytirishga oid tadqiqotlarning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiya tadqiqoti amaliy ahamiyati unda erishilgan natijalaridan mamlakat qishloq xo'jaligi va alohida tarmoqlar samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, qishloq xo'jaligi sohasida davlat investitsiya siyosatini agrosanoat majmualarida xizmat ko'rsatish mexanizmini qo'llash asosida rivojlantirish, qishloq xo'jaligini samarali rivojlantirish maqsadida agrosanoat majmualarida xizmat ko'rsatish institutini mustahkamlashning konseptual asoslarini ishlab chiqish, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti", "Industrial iqtisodiyot", "Xizmat ko'rsatish" va boshqa fanlarni o'qitishda keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Agrosanoat majmualarida xizmat ko'rsatishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “Agrosanoat majmualarida xizmat ko‘rsatish” tushunchasining iqtisodiy mazmunini qishloq xo‘jaligi va agrosanoat majmualarining samaradorligini oshirish maqsadida texnika va uskunalarni ta‘mirlash, suv ta‘minoti, o‘g‘it va kimyoviy moddalar yetkazib berish, transport xizmatlari, agrotexnika maslahatlari berish va boshqa qo‘llab-quvvatlovchi xizmatlar tarkibi soha ish faoliyatini samarali tarzda tashkil qilish va yuqori hosildorlikka erishishni ta‘minlash nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy o‘quv yurtlari jumladan, 5410400-Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi mutaxassisligi talabalari uchun tavsiya etilgan “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va menejment asoslari” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim Vazirligining 2021 yil 01 martdagi №110-sonli buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda qishloq xo‘jaligi va agrosanoat majmualarining ish faoliyatini samarali tarzda tashkil qilish va yuqori xosildorlikka erishishni ta‘minlash nuqtai nazaridan takomillashtirilgan “agrosanoat majmualarida xizmat ko‘rsatish” tushunchasi yuzasidan nazariy bilimlarni kengaytirish imkonini yaratgan;

agrosanoat majmualariga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarining faoliyat barqarorligiga erishishda xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq daromadlarning minimal hajmini ta‘minlash orqali ular moliyaviy holati samaradorligini oshirish ( $k_{ichu} \approx 0,15-0,2$ ) ning meyoriy chegaralaridan foydalanish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan qishloq xo‘jaligida agrosanoat majmualarida xizmat ko‘rsatish munosabatlari amaliyotiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024 yil 28 maydagi 05/07-04-232-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida eng samarali ishlaydigan mexanizmlarni tanlash orqali ishlab chiqarish xarajatlari sarfini 20% gacha qisqartirish, yangi texnikadan foydalanish ishlab chiqarish unumdorligini 25-30% gacha oshirish imkoni yaratilgan;

qishloq xo‘jaligida tadbirkorlarga agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishda davlat-xususiy sherikligi asosida yuqori qiymatli va innovatsion tavsifdagi texnik vositalar ro‘yxatiga kiritilgan ishlab chiqarish vositalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazib berishga oid agroxizmatlar ko‘rsatuvchi subyektlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan qishloq xo‘jaligida agrosanoat majmualarida xizmat ko‘rsatish munosabatlari amaliyotiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024 yil 28 maydagi 05/07-04-232-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida agroxizmatlar ko‘rsatuvchi subyektlar faoliyat rentabellik darajasini 15-20% gacha oshirish imkoni yaratilgan;

O‘zbekiston agrosanoat majmualarida xizmat ko‘rsatish darajasiga ta‘sir ko‘rsatuvchi tashkiliy-iqtisodiy omillarning o‘zaro bog‘liqligini ifodalovchi ekonometrik model asosida 2027 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan qishloq xo‘jaligida agrosanoat majmualarida xizmat ko‘rsatish munosabatlari

amaliyotiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024 yil 28 maydagi 05/07-04-232-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O‘zbekiston Respublikasi sharoitida qishloq xo‘jaligi sohasi ishtirokchilarining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta‘minlash tadbirlarini ishlab chiqish hamda asosiy faoliyat parametrlarining o‘zaro muvofiqligini ta‘minlash imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 2 ta xalqaro, 9 ta respublika doirasidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan va ijobiy baholangan.

**Tadqiqot natijalarning e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 24 ta ilmiy ish e‘lon qilingan, ularning 11 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, shundan 6 tasi mahalliy, 2 tasi xorijiy jurnallarida, 3 tasi boshqa jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalar, 13 tasi ilmiy amaliy konferensiyalardagi ma‘ruzalar tezislardir.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi tarkibiy jihatdan kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 170 betni tashkil etib, 24 ta jadval va 16 ta rasmdan iborat.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt hamda predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan, tadqiqotdan olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, mavzu doirasida chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Agrosanoat majmualarida xizmat ko‘rsatishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida agrosanoat majmualari shakllanishining mohiyati va konseptual jihatlari, xizmatlar ko‘rsatish samaradorligini oshirish omillari tahlil qilingan. Shuningdek, agrosanoat integratsiyasi nazariyasidan foydalangan holda agrosanoat majmuasining ishlash muammolarini o‘rganilgan.

Qishloq xo‘jaligi O‘zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmog‘i bo‘lib, 3,6 million kishini ish bilan ta‘minlaydi, bu butun iqtisodiyotda band bo‘lganlarning 27% ni tashkil qiladi. Sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 32% ni tashkil qilsa, rivojlangan mamlakatlarda bo‘lgani kabi, bu ko‘rsatkich yalpi ichki mahsulotning 50% ga yetadi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan yerlar respublika hududining 45% ni egallaydi, aholining qariyb 50% qishloqlarda yashaydi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini eksport qilish O‘zbekiston Respublikasiga umumiy eksport daromadining qariyb 20-25% ni olib keladi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 70% agrar iqtisodiyotning nodavlat sektorida ishlab chiqariladigan sharoitda, bu omillarga qo‘shimcha ravishda, xizmatlar ko‘rsatish omillari tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyati

samaradorligini oshirish uchun ahamiyatli emas. Bularga ekinlarni yetishtirish, o'simliklarni yetishtirish va chorvachilikning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar, o'z mahsulotlariga narx belgilash ishlab chiqarishni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui, tovarlar harakati tizimi va boshqalar kiradi.

Jadvalda keltirilgan qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar ro'yxatini tahlil qilib, fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda yuqori agrotexnologiyalardan foydalanadi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bu ekin maydonlarining ko'lami va fermer xo'jaliklari tomonidan davlat buyurtmasi hisobiga yetishtiriladigan mahsulotlar hajmiga bog'liq.

## 1- jadval

### Ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning tasnifi<sup>5</sup>

Omillar	Mahsulotlar ishlab chiqarish	
	Dehqon xo'jaliklari (shaxsiy yordamchi uylar)	Fermer xo'jaligi
Ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi bo'yicha	An'anaviy qo'l mehnati	Yuqori texnologiyalar yordamida mahsulot ishlab chiqarish
Xizmat turlarini qo'llash darajasi bo'yicha	Qisman qo'llaniladi	To'liq qo'llanilgan
Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning iste'moli	Tabiiy va qisman tovar shaklida	Tovar shakli
Savdo kanallari bo'yicha	Uydan bozorgacha	Fermer xo'jaligidan, bozorga qayta ishlash korxonalariga, eksport
Mahsulot narxlar	Bozor talab va taklifiga ko'ra	Davlat buyurtmasi hisobidagi mahsulotlar bundan mustasno
Daromad taqsimoti	Oila a'zolari o'rtasida taqsimot	Intellectual va jismoniy mehnat hissasiga ko'ra


Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari o'rtasida daromadlarni taqsimlash ishlab chiqarish jarayoniga qo'shgan hissasini hisobga olgan holda amalga oshiriladi va agrosanoat majmuasiga xizmatlar ko'rsatish, ularni takomillashtirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy tizimlarni baholashda yangi yondashuvlarni shakllantiradi.

Bu holatlarni hisobga olgan holda, qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatishni tashkil etishda asosiy funksional subyekt, bizning fikrimizcha, davlatdir.

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchisiga davlat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar bozori orasida iqtisodiyotning agrar sektorida tovar aylanmasini tashkil etish omili eng muhim hisoblanadi.

Narxlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi rentabellikning asosiy omili bo'lgani uchun, iqtisodiy faoliyatdan olingan foyda iqtisodiyotning ishlab chiqarish jarayonlarini moliyalashtirishning asosiy manbaiga aylanadi. Ammo, shu bilan birga, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan moliyalashtirishni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi.

<sup>5</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqildi.



**1-rasm. Davlat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar omillarini ko'p bosqichli tahlil qilish sxemasi<sup>6</sup>**

Zamonaviy iqtisodiy faoliyat sharoitida va respublika xalq xo'jaligida mulkchilikning tashkiliy-huquqiy shakllarining xilma-xilligi, shu jumladan uning eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan agrosanoat majmuasida xizmat ko'rsatishni takomillashtirishni taqozo etib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish jarayonini tayyorlash, saqlash, yetkazib berish va boshqarishni joriy etish lozim. Bunda mahsulotlar nafaqat hududlarning agrosanoat majmuasida, balki xo'jalik yurituvchi subyekt darajasida yetkazib berish darkor. Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida iqtisodiy faoliyatni boshqarishning barcha asosiy funksiyalari tovar ishlab chiqaruvchining o'zi tomonidan amalga oshiriladi, ular uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini potensial xaridor ishlab chiqarish strategiyasini ishlab chiqishda hal qiluvchi hisoblanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Agrosanoat majmualarida xizmat ko'rsatishning hozirgi holati”** deb nomlangan bo'lib, mazkur bobda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti agrar sektorining hozirgi holati tahlili amalga oshirilgan hamda agrosanoat majmualarida xizmat ko'rsatish munosabatlarini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy davlatlar tajribalari va ularning tashkiliy-huquqiy asoslari tadqiq etilgan.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlarga agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish maqsadida davlatning zimmasidagi vazifalarni kamaytirish uchun davlat-xususiy sherikligi asosida agroxizmatlar ko'rsatuvchi subyektlar faoliyatini yo'lga qo'yish

<sup>6</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

taklif etilgan buning natijasida agroxizmatlar ko'rsatuvchi subyektlar faoliyati yolg'a qoyish taklif etilgan bo'lib ularning rentabellik darajasini 15-20% gacha oshirish imkonini yaratilgan bu tadbirlarni amalga oshirish uchun agrosanoat majmualarida xizmat ko'rsatishni tartibga huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish tavsiya etilgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish konsepsiyasidan foydalanishni talab etadi, Bu shuni ko'rsatadiki, agrosanoat majmuasi tarmoqlarida investitsion jozibadorlik past, bu agrosanoat majmuasi mahsulotlarining raqobatbardosh emasligi bilan bog'liq. Asosiy vositalarga investitsiyalar hajmi agrosanoat majmuasining sanoat infratuzilmasining holatini tavsiflaydi. Shu sababli, sarmoya asosiy kapitalga qanchalik ko'p yo'naltirilsa, uning texnologik darajasi shuncha yuqori bo'ladi.

## 2-jadval

### Respublika iqtisodiyotining asosiy ko'rsatkichlari<sup>7</sup>

	2018	2019	2020	2021	2022
Yalpi ichki mahsulot mlrd. so'm	210183	242495,5	302537	407514,5	611838
Yalpi qo'shilgan qiymat, mln.so'm	190036,2	220064	267745	361951	465357
Qishloq xo'jaligi, baliqchilik mlrd.so'm	64680,3	74779	90984	117316	130599
Asosiy kapital qiymatlar.	44810,2	51232	72155	124231,3	195927
Iqtisodiyotda band bo'lganlar soni, mln. kishi.	13058,3	13298,9	13520,4	13273,	13541
Qishloq xo'jaligi, baliqchilik va o'rmon xo'jaligida band bo'lganlar soni, mln.kishi	3601	3646,1	3671,3	3537,2	3544
Qishloq, baliqchilik va o'rmon xo'jaligining ulushi % da.	26,6	27,4	27,2	26,9	25,1
Meva-sabzavot eksporti umumiy eksport hajmining % da.	9,5	4,6	5,1	6,3	6,9

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra respublika iqtisodiyotining asosiy ko'rsatkichlarini baholab, shuni ta'kidlaymizki, 2021 yilda barcha qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yalpi qo'shilgan qiymati jami qo'shilgan qiymatning 32,4% ni yoki 1/3 qismini tashkil etdi, lekin 2022 yilda u darajasi 28,1 %, Lekin shu bilan birga, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi butun milliy iqtisodiyotning asosiy kapitaliga qo'yilgan investitsiyalar umumiy hajmining atigi 6-10% ni tashkil etishini hisobga olish zarur. Bu shuni ko'rsatadiki, agrosanoat majmuasi tarmoqlarida investitsion jozibadorlik past, bu agrosanoat majmuasi mahsulotlarining raqobatbardosh emasligi bilan bog'liq.

Asosiy vositalarga investitsiyalar hajmi agrosanoat majmuasining sanoat infratuzilmasining holatini tavsiflaydi. Shu sababli, sarmoya asosiy kapitalga qanchalik ko'p yo'naltirilsa, uning texnologik darajasi shuncha yuqori bo'ladi.

3-jadvalda yalpi ichki mahsulotdagi mahsulotlarga sof soliqlarning oshishi ko'rsatilgan. Bu ijobiy tendensiya respublika iqtisodiyotida soliq bazasining ko'payishi bilan bog'liq. Shu bilan birga, 2022 yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushi 2021 yilga nisbatan 4 pog'onaga, yalpi ichki mahsulot tarkibidagi sanoat

<sup>7</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

ulushi esa 4 punktga oshganini hisobga olish kerak. Boshqa ko'rsatkichlarda keskin o'zgarishlar yo'q. Yalpi ichki mahsulot tarkibida qurilish hajmining ulushi pasaymoqda. Yalpi ichki mahsulot tarkibidagi boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlari hajmi ham kamaymoqda.

### 3-jadval

#### Yalpi ichki mahsulotning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi<sup>8</sup>

	2018	2019	2020	2021	2022
Yalpi ichki mahsulot	100	100	100	100	100
Ichki sof soliqlar sanoatning yalpi qo'shilgan qiymati	90,4	90,8	88,5	88,8	90,9
Mahsulotlarga aniq soliqlar	9,6	9,2	11,5	11,2	9,1
Sanoatlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100	100	100	100	100
Qishloq xo'jaligi, baliqchilik o'rmon xo'jaligi	34,1	34	34	32,4	28,1
Sanoat, shu jumladan qurilish	26,9	26,6	27,9	32	36,4
Sanoat	20,2	20,6	22,2	26,3	30
Qurilish	6,	6	5,7	5,7	6,4
Xizmatlar	39,7	39,4	38,1	35,6	35,5
Savdo, turar joy xizmatlari	8,5	8,5	8,5	7,3	6,9
Transport va saqlash axborot kommunikatsiya	10	9,6	9,6	8,3	7,7
Boshqa xizmat ko'rsatish sohalari	25,4	21,2	203	20	20,9

Inflyatsion iqtisodiyotda moddiy ishlab chiqarishning o'sishiga, shu jumladan iqtisodiyotning qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilish katta ahamiyatga ega emas, uning asosiy maqsadi ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va joriy etish, uning barqaror ishlashi va saqlanishi. raqobatchining agrosanoat majmuasiga bo'lgan qobiliyati.

4-jadvaldagi ma'lumotlar 2022 yilda korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan investitsiyalar hajmining 2021 yilga nisbatan 2,3 barobar kamayishi tendensiyasini tavsiflaydi. Bu shuni ko'rsatadiki, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy imkoniyatlari pasayadi va bu ularning ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirishga bo'lgan qiziqishlarining pasayishiga olib keladi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini boshqa manbalardan moliyalashtirish hajmining kamayishi e'tiborga loyiqdir.

### 4-jadval

#### Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga moliyalashtirish manbalari bo'yicha investitsiyalar, %<sup>9</sup>

	2018	2019	2020	2021	2022
Jami	100	100	100	100	100
Jumladan, respublika byudjeti	13	11,8	9,1	11,4	15,9
Korxonalar va tashkilotlarning vositasi	9,7	10,6	14,8	22,2	9,3
Tijorat banklari kreditlari va boshqa mablag'lar	6,3	7,7	11,7	29,1	16,7
Xorijiy investitsiyalar va kreditlar	1,4	3,6	3,1	13,1	41,4
Boshqa moliyalashtirish manbalari	69,6	66,3	61,3	24	16,7

<sup>8</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

<sup>9</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Bunday moliyalashtirish manbasi har xil fondlar bo‘lishi mumkin, ularning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini subsidiyalashdir.

Ammo, shu bilan birga, bank sektori mablag‘larining ulushi oshadi, bu ishlab chiqaruvchilar tovarlarining iqtisodiy holatiga salbiy ta‘sir qiladi, chunki foiz stavkasi tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish rentabellik darajasidan yuqori bo‘lishi mumkin.

5-jadvaldagi ma‘lumotlardan xulosa qilishimiz mumkinki, 2022 yilda qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti ishlab chiqarish 2021 yilga nisbatan 1,2 barobardan oshdi. Bir gektar ekin maydoniga 2022 yilda 67,7 million so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Bunga takroriy ekish orqali erishildi, lekin shu bilan birga qayta aloqa shartini ham hisobga olish kerak, ya‘ni bitta sohaning rivojlanishi tegishli tarmoq faoliyati natijasiga bevosita ta‘sir qiladi. Shuningdek, milliy iqtisodiyot tarmoqlarining ijobiy rivojlanish tendensiyalarini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkich sifatida agrosanoat majmuasida mehnat unumdorligining oshishi kuzatilmoqda.

## 5-jadval

### Qishloq xo‘jaligining asosiy ko‘rsatkichlari<sup>10</sup>

	2018	2019	2020	2021	2022
Qishloq xo‘jalik ekinlari ekiladigan maydoni ming.	3694,2	3706,7	3474,5	3396	3309,4
Qishloq, baliqchilik va o‘rmon xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlari) hajmi milliard so‘m	103302	119726,7	154369,4	195103,7	224265
Shu jumladan, ekinlar yetishtirish	55429,2	61755,1	83303,4	98414,5	111904,8
Chorvachilik	44175,4	53844,1	64895,9	89019	104378,3
Qishloq xo‘jaligi, baliqchilik va o‘rmon xo‘jaligining o‘sish sur‘atlari o‘tgan yilga nisbatan%	106,1	106,1	106,1	100,2	103
Shu jumladan, ekinlar yetishtirish	105,5,,,,	105,5	987	95,8,,,,	104,8
Chorvachilik	106,9	107	104,1	105,7	101,6
Qishloq xo‘jaligi, baliqchilik va o‘rmon xo‘jaligida band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik soni	3,5	3,6	3,6	3,7	3,5
Agrosanoat majmuasida mehnat unumdorligi, mln. so‘m	28,6	33,2	41,7	52,7	64

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tabiiy va iqlim sharoitiga bog‘liq bo‘lganligi sababli, yalpi ozuqa hosildorligi yildan-yilga o‘zgarib turadi va 2018 yilga nisbatan 2022 yilda ozuqa birligiga 1 mln. Respublikada chorvachilik har xil turdagi hayvonlar bilan ifodalanishini hisobga olsak, yillik yemga bo‘lgan ehtiyojni hisoblab, qishloq xo‘jalik hayvonlarining odatdagi boshga aylanish koeffitsiyentlaridan foydalanib, biz hayvonlarning umumiy shartli chorva mollarini topamiz.

<sup>10</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Ozuqa ishlab chiqarishning iqtisodiy ko'rsatkichlari jadvali<sup>11</sup>

Sanoat jabhalari	2014	2018	2019	2020	2021
Chorvachilik mahsulotlari jami milliard so'mda	14581,4	44175,1	53844,2	64895,9	89019,2
Ushbu mahsulotni ishlab chiqarish uchun yemdan foydalanish qiymati	11258,4	11739	12270	12720	14600
Chorvani ozuqalantirishda narxning ulushi %da	77	26,5	23	19,6	16,4
O'zi ishlab chiqargan ozuqa narxi milliard so'mda	3120	3150	3120	2850	2790
Import qilingan ozuqa narxi milliard so'mda	8136	8585	9150	9870	11810
Import qilingan ozuqa narxining chorvachilik yalpi mahsulotiga nisbati % da	55	19	15,6	15,2	13,2

7-jadvalda respublikada ozuqa ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan. Yildan-yilga yalpi chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'paymoqda va shu tariqa chorvachilik mahsulotlarining tannarxida ozuqa tannarxining ulushi kamaymoqda. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda ozuqa ishlab chiqarishning mavjud ishlab chiqarish va iqtisodiy salohiyatidan foydalanish katta ahamiyatga ega, shuning uchun u ijobiy oshadi va ozuqa importini kamaytiradi.

Shundan kelib chiqib xulosa qiladigan bolsak, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini innovatsion texnologik asosga o'tkazish uchun poydevor qo'yish, investitsiyalar oqimi uchun sanoatning jozibadorligini oshirish maqsadga muvofiqdir, bu esa o'z navbatida iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini rivojlanishiga yordam beradi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, bozor munosabatlari sharoitida, ayniqsa unga o'tish bosqichida, jahon mamlakatlari qishloq xo'jaligini moddiy-texnik resurslari bozorini rivojlanishi va ular mahsulot (xizmat)lari bilan tarmoqni ta'minlanishi va agroservis xizmatini ko'rsatuvchi korxonalarini rivojlantirish bo'yicha bir qator davlatlar muayyan muvaffaqiyatlarga erishishgan.

Tadqiqot ishimizda bir qancha xorijiy davlatlarining agrosanoat majmualarida xizmat ko'rsatish jarayonlarini tahlil qildik masalan, ulardan, Gollandiya, Germaniya va Avstriya, Buyuk Britaniya, Kanada va Avstraliya davlatlari.

Bizning nazarimizda davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish qishloq xo'jaligi tashkilotlari va davlat o'rtasidagi munosabatlarni asosiy vositalarni yangilashning ta'sirchan mexanizmini yaratishga yordam beradigan yangi darajaga chiqarishning eng samarali vositasi bo'lish imkoniyatiga ega va demak mamlakatimizda agrar ishlab chiqarish darajasini oshiradi.

<sup>11</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Qishloq xo'jaligida davlat-xususiy sherikchiligi yo'nalishlari<sup>12</sup>

Qo'llash sohasi	Natija
Infrastrukturaviy cheklovlarni bekor qilish	Qishloq hudularini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishni ta'minlovchi xizmat ko'rsatish tarmoqlari infrastrukturasi rivojlantirish
	Yangi energotarmoqlarini, aloqa liniyalarini va h.k.larni qurish eskilarini rekonstruksiyasi qilish, hamda ulardan samarali foydalanishni ta'minlash
	Sug'orish tizimlarini qurish va ekspluatatsiya qilish va h.k
Qishloqda infrastruktura bilan bog'liq ijtimoiy masalalarni hal etish	Konsepsiyasi shartnomalari asosida uy-joy,shifoxona,maktab,bolalar bog'chasi qurish
Respublika va hududiy darajasida yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish	Qayta ishlash zavodlarini, chorvachilik fermalarini qurish va rekonstruksiyasi qilish va h.k
Qishloq xo'jaligida moliyaviy infrastrukturani rivojlantirish	Davlat-xususiy sherikchiligi yo'nalishlarini moliyalashtirishni, shu jumladan agrosanoat majmualariga xizmat ko'rsatish tarmoqlarini soddalashtirish

Shunday qilib, qishloq xo'jaligida davlat-xususiy sherikchiligini qo'llash zarurati davlat-xususiy sherikchiligi mexanizmiga qo'yilgan davlat sherigi sifatida xususiy sektor afzalliklaridan foydalanadigan va shunday sheriklikdan har bir ishtirokchi uchun sezilarli foyda olishga imkon beradigan imkoniyatlardan kelib chiqadi.

Hulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish konsepsiyasini ishlab chiqish talab etiladi. Unda respublika darajasidagi loyihalar bilan bir qatorda, agrosanoat majmualarida xizmat ko'rsatishning mahalliy va tarmoq xarakteridagi rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Mahalliy darajada mahalliy davlat hokimiyati organlari va biznes o'rtasida agrosanoat majmualarida xizmat ko'rsatishning loyihalari bo'yicha harakatlarni muvofiqlashtirish zarurati eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Dissertatsiyaning uchunchi bobi **“Agrosanoat majmualarida xizmat ko'rsatish munosabatlarini takomillashtirish”** deb nomlangan. Mazkur bobda agrosanoat majmuasida xizmatlar ko'rsatishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish zarurati asoslangan bo'lib, agrosanoat majmuasida qishloq xo'jaligi sohasi tarkibiy modeli va uning faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlarini baholangan hamda agrosanoat majmuida yakuniy mahsulotni klaster tuzilmalarida taqsimlash metodologiyasi ishlab chiqilgan.

Qishloq xo'jaligi byudjeti tuzilmasini 2030 yilgacha o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, paxta va bug'doy ishlab chiqarish kabi strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda davlatning roli asta-sekin kamayib bormoqda va 2025 yilga kelib u butunlay tugaydi. Urug' va chorvachilikni, shuningdek, baliqchilikni rivojlantirish dasturi ustuvor vazifaga aylanmoqda va bosqichma-bosqich ma'muriy nazorat Vazirlar Mahkamasining 2020 yildagi vazifalaridan Qishloq xo'jaligi vazirligi vazifalariga o'tkazilmoqda.

<sup>12</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Qishloq xo'jaligi byudjeti tarkibidagi salbiy omil shundaki, 2021 yildan keyin qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash dasturi davlat organlari nazoratidan chiqib ketadi. Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashning rivojlanish darajasi butun agrosanoat ishlab chiqarishining texnik va texnologik holatini ko'rsatadi. Shu sababli, sanoatni mexanizatsiyalashni davlat tomonidan tartibga solishning rad etilishi erta qadamdir. Chunki agrosanoat ishlab chiqarish tarmoqlari katta kapital qo'yimalarga muhtoj. Shuningdek, byudjetda sug'orish tizimi va sug'orish tizimlarini, shu jumladan o'rmon xo'jaligini ta'mirlash xarajatlari oshgan.

## 8-jadval

### 2020-2030 yillarda respublika qishloq xo'jaligi budjetining tuzilishi<sup>13</sup>

Budjet mablag'lari	Ma'sul tashkilot (2021y)	Ma'sul tashkilot (2020y)	Mlrd.so'm (2021y)	mln.doll. AQSH				Ulushi, qishloq xo'jaligi budjetining umumiy hajmidan %			
				2021y	2021y	2025y	2030y	2021y	2021y	2025y	2030y
<b>I. Aholining savdo-sotiqdagi faoliyatini havfsizligini ta'minlash</b>											
Strategik zahira	-	Vazirlar Mahkamasi	0	0	2	3	3	0.0%	0.2%	0.2%	0.2%
<b>II. Agro-biznes muhiti uchun qulay shart-sharoit yaratish va narx mutadilligini saqlash</b>											
Paxta yetishtiruvchilar uchun foiz stavkasi.	Moliya Vazirligi	Moliya Vazirligi	634,8	77,4	25	0	0	9,2%	2,4%	0,0%	0,0%
Bug'doy yetishtiruvchilar uchun foiz stavkasi.	Moliya Vazirligi	Moliya Vazirligi	130,9	16,0	10	0	0	1,9%	1,0%	0,0%	0,0%
Urug' ishlab chiqarish va sifat nazorati dasturi	Qishloq xo'jaligi Vazirligi, Vazirlar Mahkamasi	Qishloq xo'jaligi Vazirligi,	8,3	1,0	15	20	30	0,1%	1,4%	1,6%	2,2%
Chorvachilikni rivojlantirish dasturi	Vazirlar Mahkamasi	Qishloq xo'jaligi Vazirligi,	5,0	0,6	5	10	15	0,1%	0,5%	0,8%	1,1%
Baliqchilikni rivojlantirish dasturi	Vazirlar Mahkamasi	Qishloq xo'jaligi Vazirligi,	5,0	0,6	3	10	15	0,1%	0,3%	0,8%	1,1%
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash dasturi	Qishloq xo'jaligi Vazirligi,	Qishloq xo'jaligi Vazirligi,	371,6	45,3	10	0	0	5,4%	1,0%	0,0%	0,0%
Bog'dorchilikni rivojlantirish dasturi.	-	Qishloq xo'jaligi Vazirligi,	0	0	10	15	25	0,0%	1,0%	1,2%	1,8%
Agrologistika markazlarini rivojlantirish.	-	Qishloq xo'jaligi Vazirligi,	0	0	150	150	100	0,0%	14,5%	12,2%	7,2%
Qishloq xo'jaligi tashkilotlarini va uyushmalarini rivojlantirish dasturi	-	Qishloq xo'jaligi Vazirligi	0	0	2	10	15	0,0%	0,2%	0,8%	1,1%
<b>III. Investitsiyalarni jalb etish orqali Davlat aralashuvini kamaytirish</b>											

<sup>13</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqildi.


Qishloq xo'jaligini iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va takomillashtirish	-	Qishloq xo'jaligi Vazirligi	0	0	10	20	30	0,0%	1,0%	1,6%	2,2%
<b>IV. Qimmatbaho tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash va atrof -muhitni muhofaza qilish</b>											
Unumdorligi past yerlarda agrosanoatni rivojlantirish	Qishloq xo'jaligi Vazirligi	Qishloq xo'jaligi Vazirligi	100,0	12,2	0	0	0	1,4%	0,0%	0,0%	0,0%
Qishloq xo'jaligini samarali boshqarish orkali atrof muhofaza qilish	-	Qishloq xo'jaligi Vazirligi	0	0	4	8	10	0,0%	0,4%	0,6%	0,7%
O'rmon xo'jaligini rivojlantirish va boshqarish dasturi	O'rmon xo'jaligini rivojlantirish Davlat Qo'mitasi	O'rmon xo'jaligini rivojlantirish Davlat Kumitasi	70	9	12	15	17	1,0%	1,2%	1,2%	1,2%
Sug'orish tizimlari uchun kapital xarajatlar	Suv xo'jaligi Vazirligi	Suv xo'jaligi Vazirligi	730,5	89,1	110	200	220	10,5%	10,6%	16,2%	15,8%
Sug'orish tizimlarini rekonstruksiya qilish uchun kapital xarajatlar.	Suv xo'jaligi Vazirligi	Suv xo'jaligi Vazirligi	541,3	66,0	90	150	200	7,8%	8,7%	12,2%	14,4%
Sug'orish tizimlarining ishlashi jarayonini boshqarish	Suv xo'jaligi Vazirligi	Suv xo'jaligi Vazirligi	1212,4	147,8	200	250	300	17,5%	19,3%	20,3%	21,5%
Sug'orish uchun elektr xarajatlari.	Suv xo'jaligi Vazirligi	Suv xo'jaligi Vazirligi	1591,6	194,1	180	150	100	23,0%	14,7%	12,2%	7,2%
<b>V. Zamonaviy davlat boshqaruvi tizimlarini rivojlantirish</b>											
O'simliklarni himoya qilish xizmatlar	Vazirlar Mahkamasi	Vazirlar Mahkamasi	20,2	2,5	7	10	20	0,3%	0,7%	0,8%	1,4%
Veterinariya va hayvonlar himoya qilish xizmatlar	Vazirlar Mahkamasi	Qishloq xo'jaligi Vazirligi	269,0	32,8	45	50	65	3,9%	4,3%	4,1%	4,7%
Oziq-ovqat xavfsizligi xizmatlari	Sog'liqni Saqlash Vazirligi	Sog'liqni Saqlash Vazirligi	0	0	8	10	15	0,0%	0,8%	0,8%	1,1%
Xavf xatarlarini boshqarish	Qishloq xo'jaligi Vazirligi	Qishloq xo'jaligi Vazirligi	66,4	8,1	10	15	20	1,0%	1,0%	1,2%	1,4%

<b>VI. Qishloq xo'jaligi bilimlari, axborot va maslahat xizmatlari tarmog'ini rivojlantirish</b>											
Qishloq xo'jaligini tadqiq qilish va rivojlantirish	Qishloq xo'jaligi Vazirligi	Qishloq xo'jaligi Vazirligi	37,7	4,6	10	20	50	0,5%	1,0%	1,6%	3,6%
